



GEOLOGICAL STRUCTURE AND RELIEF OF SANGZOR VALLEY

Sokhiba Kushbakova

Master's student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: tourism, pilgrimage tourism, ecotourism, shrine, monument, historical tourism, recreation, spiritual and cultural heritage, crafts.

Received: 12.12.22

Accepted: 14.12.22

Published: 16.12.22

Abstract: The article reveals the reforms being carried out in order to develop tourism in the Republic of Uzbekistan and pilgrimage tourism, which is its largest sector. Together with all the information and concepts, all attention is focused on Aikor mountain of Bakhmal district. Opinions on the problems, opportunities and their use of the development of pilgrimage tourism of Aikor Mountain were analyzed.

SANGZOR VODIYSINING GEOLOGIK TUZILISHI VA RELYEFI

Sohiba Kushbakova

Magistrant

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: turizm, ziyorat turizmi, ekoturizm, ziyoratgoh, yodgorlik, tarixiy turizm, rekratsiya, ma'naviy-madaniy meros, hunarmandchilik.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida turizmni hamda uning eng katta tarmoqlari bo'lgan ziyorat turizmi rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan islohotlar olib berilgan. Barcha ma'lumotlar va tushunchalar bilan birligida, hamma e'tibor Baxmal tumani Oyqor tog'iga qaratiladi. Oyqor tog'i ziyorat turizmini rivojlantirish muammolari, imkoniyatlari va ulardan foydalanish yuzasidan fikr-mulohazalar tahlil qilingan.

ГЕОЛОГИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ И РЕЛЬЕФ САНГЗОРСКОЙ ДОЛИНЫ

Сохиба Кушбакова

студент магистратуры

Джиззакский государственный педагогический университет

Джиззак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: туризм, паломнический туризм, экотуризм, святыня, памятник, исторический туризм, рекреация, духовно-культурное наследие, ремесла.

Аннотация: В статье раскрываются реформы, проводимые в целях развития туризма в Республике Узбекистан и паломнического туризма, являющегося его крупнейшей отраслью. Вместе со всей информацией и понятиями все внимание сосредоточено на горе Айкор Бахмальского района. Проанализированы мнения о проблемах, возможностях и их использовании в развитии паломнического туризма горы Айкор.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizning turistik imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratib, “...biz ziyorat turizmi, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishimiz zarur”, ekanligi haqida takidlagan edilar.

ASOSIY QISM

Hozirgi vaqtida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning hammasida turizm sohasiga alohida e’tibor ko‘rsatiladi va shu navbatda, ushbu sohani rivojlantirish barqaror iqtisodiy yuksalishni ta’minlaydi. O‘zbekiston ham juda ulkan turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega bo‘lib, unda taraqqiyotimizning turli davr va sivilizatsiyaga daxldor 7,4 ming madaniy meros obyektlari bordir. Shu kabi obyektlardan 209 tasi to‘rtta muzey shaharlar: Xiva (Ichanol’a), Buxoro (shaharning tarixiy markazi), Shahrisabz va Samarcand shaharlariiga to‘g‘ri keladi, ularning aksariyat qismi YUNESKO butun jahon merosi ro‘yxatidan o‘rin olgan. Shuni ta’kidlash joizki, turizm sohasidagi maqsadli chora-tadbirlar ish o‘rinlarini amalga oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal miqyosda rivojlantirish, valyuta tushumlarini oshirish, aholi daromadlari va turmush darajasini yahshilash sezilarli ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 16-avgustdagi “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori qabul qilinishi ushbu sohani jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma’muriy va huquqiy muhitni yaratib, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yurtimizga keladigan turistlar sonini ko‘paytirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan.

Jizzax viloyatida xorijiy turistlarga juda katta qiziqish uyg‘otadigan turizmning turlaridan biri tabiatning topilmas yodgorliklariga sayohat hisoblanadi. Bularga qadimgi odam shaklidagi tosh qotgan haykallar, qo‘y shaklidagi toshlar, sharsharalar, karst buloqlarları, tabiatning so‘lim go‘shalari va karst buloqlarini ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Ana shulardan biri Oyqor tog‘lari hisoblanadi.

Tadqoqotchi M. Hoshimovning (2009 yil) ta’kidlashicha: “Oyqor” cho‘qqisining nomi “oy” va “qor” so‘zlarining qo‘shilishi bilan yaralgan, u Sangzor daryosining yuqori qismi Turkiston tizmasining bir qismi bo‘lgan Chumqortog‘ning baland joyida o‘rin olgan. Chumqortog‘ning Oyqordanda balandroq qismlari ko‘p bo‘lishiga qaramay ular ichida Oyqor o‘zining go‘zalligi bilan ajralib turadi. Oyqor juda mukammal hamda yodda qoladigandir. Undagi gumbazsimon cho‘qqi nimasi bilandir so‘ngan vulqona ko‘rinishini esga soladi va uzoqdan o‘zining viqori bilan kishida taassurot qoldiradi. Cho‘qqi bamisolı ufq ustida o‘zining tik yonbag‘irlari ila muallaq turgandek bo‘ladi. Oyqor cho‘qqisi yozning yolg‘iz ikki oydagina qor qoplamidan yuzaga keladi. Bu vaqtda yonbag‘irlarini qalin o‘tlar va gullar bilan burkanadi. Boshqa vaqtda, saraton jaziramasi boshlangan davrda ham cho‘qqisida qor ko‘rinadi. Oyli tunda qor qoplamidan sehrli nur taralayotgandek ko‘rinadi.

Shimolga qayrilgan sari tik yonbag‘ri boshqacha yorqin oy nurida cho‘madi. Oyqor dengiz sathidan 3200 metr, O‘smat shaharidan 2500 m balanddagi baxaybat gavdali shunday tunlarda oy nurida bulutga o‘xshab yaltiraydi, ayniqsa, to‘lin oy kechalarida beqiyos nom bilan nomlangan. Odamlar orasida bu afsonaviy toqqa atab juda ko‘plab rivoyatlar, hikoyatlar yaratilgan va hatto qo‘shiq qilib kuylangan. Afsonalardan birida tog‘ yonbag‘ridagi tarixi uzoq asrlarga bog‘langan. O‘smat shahrini nomining yaratilganiga izoh berilgan. Unda aytishicha bir vaqtlar tog‘ yonbag‘rlaridagi aholi o‘zidan kuchi bir qancha marta ko‘p bo‘lgan Iskandar Zulqarnayn lashkarlariga qarshi kurash olib boradi. Jahongir ushbu joydan boy Usrushona o‘lkasi tomon o‘tib ketayotgan bo‘ladi. Ammo oz sonli vatan himoyachiları bir necha tunu-kun mardlarcha jang olib boradi va halok bo‘lishdi. Faqatgina kam miqdorda jangchilar jasur boshliqlari Usmat boshchiligida dushman xalqasini yorib o‘tadi va daraga kirishadi. Orqadan kelayotgan dushman ko‘z o‘ngida ular oy nurida billurdek yaltirab ko‘ringan tog‘ yon bag‘riga kirib g‘oyib bo‘lishadi. Dushman yaqin kelganda esa oy bulut orasiga berkinadi va yon`atrof qorong‘ulikga cho‘madi. Ma’lum vaqtdan so‘ng aholi tog‘ orasiga kirib ketgan qo‘rqmas botir sharafiga qurilgan qishloqni uni nomi sharafiga Usmat deb atay boshlaydi. Albatta bular afsona, ammo, u go‘zal joyga husn beruvchi bir qo‘shimchadir. Shu sababli ham qadimgi yunon tarixchilarining ishlari ushbu tuman atrofida bosqinchilar bilan vatan himoyachiları o‘rtasida bo‘lgan bir jang to‘g‘risida xotira bor. Iskandar Zulqarnay Usrushona o‘lkasiga borishda yo‘lida qoyalar ustida chiqgan 30 ming qurollangan mahalliy aholi chiqadi. Kuchli jangda Iskandar Zulqarnay ilk bor tizzasidan yarador

bo‘ladi. Ammo kuchlar teng bo‘limganligi uchun Vatan himoyasi uchun kurashuvchilarning ko‘plari qoyalarda dushmaning o‘qidan vafot etishgan. Shunisi bilan qiziqliki, tog‘li Zarafshonning ko‘plab qismlarida Iskandar Zulqarnay nomiga bog‘liq joylar ko‘plab uchrasa (masalan Iskandarko‘l) Samarqanddan sharq tomonda va Jizzax atroflarida ushbu nom yo‘q. Bu albatta, Iskandar Zulqarnaynning Usrusha aholisidan juda yomon taassuroti uchun, ataylab xalq uning nomini unutgan bo‘lishi mumkin. Oyqor bugungi yozuvchilar orasida ham mashhurdir. U haqida M. Shverdin va Nurali Qobil o‘zining kitoblarida ma’lumotlar keltirgan.

XULOSA

Oyqorni o‘tmishda sayyoohlar ham ko‘p takidlashgan. Faqatgina Oyqorning go‘zalligini o‘zining ko‘zi ila sayyohgina uni ko‘rgan va o‘tmishdagi sayyoohlar u haqida kuylamasilagini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bugungi vaqtida Oyqor dam oluvchilar uchun juda zo‘r maskanlardan hisoblanib, u yerda Baxmal, Jizzax, G‘allaorol va ko‘plab hududlardan sayyoohlar dam olish uchun chiqadi.

Oyqor tog‘larida qishda va yozda maroqli dam olish mumkin. Oyqor yaqinida qishlik chang‘i sport ba`zasini tashkil qilinsa, u yerda 5 oy, ya`ni noyabrdan-martgacha foydalanish mumkin bo‘ladi. Agar tog‘ zonasi mukammal o‘rganilib, yo‘llar olinsa, tabiat va tarixiy yodgorliklari ta`minlansa sayohat maskanlari o‘rganilib chiqilsa kelajakda Oyqor tog‘lari sayohat bo‘yicha eng zo‘r mashhur joylarning biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli Farmoni, 2019-yil 5-yanvar.
2. “2018–2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3217-sonli qarori. 2017-yil 16-avgust.
3. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishibo‘yicha Harakatlar strategiyasi. PF-4947-sonli Farmoni, 2017-yil 7-fevral
4. Abduxalikov K.A. Mountain and Mountain Tourism in Uzbekistan: Potential and Development Factors International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR) ISSN: 2000-005X Vol.
5. Qurbonov Rahmatjon. “Jizzax Viloyatida turizmning maxsus turlarini rivojlantirish imkoniyatlari”.
6. <https://www.e-unwto.org> UNWTO Annual report. 2017